

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2023-yilning III- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘I Sh. Mamadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2023-yilning III choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma’lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-sentabrida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 46 432,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvarsentabri bilan taqqoslaganda 4,0 % ga o‘sdi. YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 109,7% ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘sghan hissasi 6,2 % ga yetdi.

Viloyat korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 23 944,6 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,6 % ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 27210,5 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi.

2023- yilningyanvar-sentabr oylarida, Farg‘ona viloyatida jami 7 205,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 112,7 % nitashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **60 991** tani tashkil etib, ulardan **42 663** tasi yoki **69,9** % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda **6 489** ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa 2022-yilning mos davriga nisbatan 314 taga kam.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **19,1** trln. so‘mni, 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **106,9** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **16,7** trln so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **106,2** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **1 487,9** mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – **523,5** mln. AQSH dollari va import – **964,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **4 040,6** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **64,3** ming kishiga yoki **1,6** % ga ko‘paydi.

Farg‘ona viloyatida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **1 4068,1** mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning **61,4%** yoki **8632,3** mlrd.so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan **38,6** % yoki **5 435,8** mlrd.so‘m moliyalashtirildi.